

Abdulazizxon (ashtarxoniy)



Abdulazizxon ibn Nadrmuhammadxon

(1614- Balx -1681)

(1645-1680)

Ashtarxoniylardan bo'lgan Buxoro xoni. Buxoro xoni Nadrmuhammadxonning o'g'li. 1626 yildan *Xuttalon* hokimi, 1630 yildan *Balx*ning g'arbiy tumanlari hokimi, 1645 yilda bir guruh fitnachi amirlar otasi Nadrmuhammadxonning poytaxtda yo'qligidan foydalanib Abdulazizni Buxoro xonligi taxtiga o'tkazgan. U markaziy hokimiyatni mustahkamlashga harakat qilgan, mamlakat obodonchiligiga birmuncha hissa qo'shgan. Buxoroda ko'pgina muhtasham binolar qurdirgan (**Abdulazizxon madrasasi** -1652 yilda qurilgan va b.).

2023-11-02 16:53:02